

**GENETIKA VA O'SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B 53.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O'SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**MURODOVA SOJIDA MAQSADBOY QIZI**

**NO'XATNING (*CICER ARIETINUM L.*) KOLLEKSIYA NAMUNALARINI  
SSR DNK MARKERLARI BILAN FUZARIOZGA CHIDAMLI BO'LGAN  
LOKUSLARINI ASSOTSIATIV KARTALASHTIRISH**

**03.00.09 – Umumiy genetika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Murodova Sojida Maqsadboy qizi**

No‘xatning (*Cicer arietinum L.*) kolleksiya namunalarini SSR DNK markerlari bilan fuzariozga chidamli bo‘lgan lokuslarini assotsiativ kartalashtirish..... 3

**Муродова Сожида Мақсадбой кизи**

Ассоциативное картирование локусов устойчивости к фузариозу с SSR-ДНК-маркерами коллекционных образцов нута (*Cicer arietinum L.*).....21

**Murodova Sojida Makhsadboy kizi**

Association Mapping of Fusarium Resistance Loci Using SSR DNA Markers in Chickpea (*Cicer arietinum L.*) Collection Samples..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**GENETIKA VA O'SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B 53.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O'SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**MURODOVA SOJIDA MAQSADBOY QIZI**

**NO'XATNING (*CICER ARIETINUM L.*) KOLLEKSIYA NAMUNALARINI  
SSR DNK MARKERLARI BILAN FUZARIOZGA CHIDAMLI BO'LGAN  
LOKUSLARINI ASSOTSIATIV KARTALASHTIRISH**

**03.00.09 – Umumiy genetika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B1050 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.genetika.uz](http://www.genetika.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bozorov Tohir Ahmadovich**  
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Sherimbetov Anvar Gulmirzayevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Turayev Ozod Sunnataliyevich**  
biologiya fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Ilg'or texnologiyalar markazi**

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_\_» «\_\_\_\_» kuni soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori yuz 266-uy, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (99871) 264-23-90, faks: (99871) 264-22-30, e-mail: [igebr@academy.uz](mailto:igebr@academy.uz), [igebr\\_anruz@mail.ru](mailto:igebr_anruz@mail.ru), [genetika@exat.uz](mailto:genetika@exat.uz) ).

Dissertatsiya bilan Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori yuz 266-uy, Genetika va eksperimental biologiya instituti. Majlislar zali. Tel.: (99871) 264-23-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Narimanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, q/x.f.d., professor

**I.Dj. Kurbanbayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, b.f.d.,  
professor

**S.K. Baboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dunyoda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgani sababli, yuqori hosildor, kasalliklarga chidamli va ekologik barqaror qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish masalasi global ahamiyat kasb etmoqda. Dukkakli ekinlar, xususan no'xat (*Cicer arietinum* L.), o'zining yuqori ozuqaviy qiymati, tuproq unumdorligini yaxshilash xususiyati hamda azot fiksatsiyasi orqali barqaror dehqonchilikka qo'shgan hissasi tufayli dunyo bo'ylab keng e'tirof etilmoqda. No'xat yetishtirish jarayonida eng katta muammolardan biri fuzarioz wilt kasalligidir. Ushbu kasallik o'simliklarning ildiz tizimini zararlab, vegetatsiya davrida qurishiga olib keladi va hosildorlikni 60% gacha kamaytirishi mumkin. An'anaviy kurash choralarining samaradorligi past bo'lib, ko'plab hollarda ekologik xavf tug'diradi. Shu nuqtayi nazardan fuzariozga chidamli no'xat navlarni yaratish va ularni aniqlash hozirgi kunda qishloq xo'jaligida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda no'xatning fuzarioz kasalligiga chidamliligini o'rganishga qaratilgan molekulyar-genetik tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda. No'xat o'simligining mikrosatellit molekulyar markerlarga asoslangan genetik xilma-xilligini o'rganish, SSR mikrosatellit markerlar asosida genotiplarni bir biridagi allellar bo'yicha ajratish, shuningdek turli xil markerlar yordamida *Fusarium* turlarini aniqlash patogen izolyatlarini dala sharoitida kasallangan o'simliklardan ajratish hamda Fuzarioz wilt kasalligiga chidamlilikni DNK markerlari yordamida assotsiativ xaritalash muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda no'xat ekinini genetik va agrotexnik jihatdan takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Jumladan, no'xatning milliy genofondini saqlash, agrobiologik va xo'jalik jihatdan qimmatli belgilarini o'rganish, kasalliklarga chidamli genotiplarni ajratish yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida<sup>1</sup> "...dukkakli ekinlar yetishtiriladigan maydonlarni kengaytirish, shu orqali qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirish va tuproq unumdorligini yaxshilash, genetik tadqiqotlar va seleksiya ishlari orqali kasallikka chidamli, yuqori hosilli ekin navlarini yaratish" bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda no'xatning jahon kolleksiyasi namunalaridan hosildor, sifat ko'rsatkichlari yuqori, kasalliklarga chidamli bo'lgan namunalarni tanlab olishda molekulyar markerlardan foydalanish yaxshi samara beradi shuningdek ushbu markerlar fuzariozga chidamli bo'lgan genlar/lokuslar bilan bog'liq genetik hududlarni aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni

sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106-son "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktorlik darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, mikrobiologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** No'xatning SSR DNK markerlar yordamida genetik xilma xilligi hamda kasallikka chidamlilik belgisi bo'yicha izlanishlar dunyoning yetakchi davlatlari, jumladan AQSH, Xitoy, Hindiston, Eron, Pokiston, O'zbekiston va boshqa ko'plab mamlakatlar ilmiy markazlarida olib borilmoqda.

Xorijiy olimlar (Sharma 2017; Kumar 2018; Choudhary 2000; Gaur 2011; Sachdeva 2019; Moin 2020; Jha 2021; Lakmes 2024) tomonidan no'xat o'simligining mikrosatellit molekulyar markerlarga asoslangan genetik xilma-xilligini o'rganish, SSR mikrosatellit markerlar asosida genotiplarni bir biridagi allellar bo'yicha ajratish, shuningdek turli xil markerlar yordamida *Fusarium* turkumining Foc2 rassasiga chidamlilik belgisiga assotsiativ kartalash ishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Qator mahalliy tadqiqotchilar (Azamov 2022; Qudratov 2021, Rahmanov 2016; Bobokulov 2022; Qulmamatova.D. 2022; Bobomuradov 2024,) tomonidan no'xat o'simligining kasalliklari, ularga chidamlilikni molekulyar markerlar bilan genetik tahlillari, hosildorlik ko'rsatkichlari, yetishtirish agrotexnologiyasi, urug' tarkibi, dukkaklilarning tuproq unumdorligiga ahamiyati bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, no'xat (*Cicer arietinum L.*) o'simligida DNK SSR markerlar yordamida uning fuzarioz kasalligiga chidamliligi bilan birgalikda hosildorlik elementlarini ustida tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarda yetarlicha keltirilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'z FA Genetika va O'simliklar biologiyasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining IL-402104268 "Molekulyar genetik uslublar yordamida no'xat va yasmiqning fuzariozga chidamli navlarini yaratish" mavzusidagi (2022-2024) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** No'xat (*Cicer arietinum L.*) kolleksiya namunalarining morfoxo'jalik belgilarini baholash va fuzariozga chidamli bo'lgan genlar/lokuslarni assotsiativ kartalashtirish asosida kasallikka chidamliligi bilan

bogʻlangan SSR DNK markerlarni aniqlash hamda chidamli donorlarni ajratib olishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

ICARDA (Qurgʻoqchil mintaqalarida qishloq xoʻjaligi tadqiqotlari xalqaro ilmiy markazi) kolleksiyasining noʻxat namunalarini morfoxoʻjalik belgilarini baholash;

fuzarioz bilan kasallangan noʻxat oʻsimligi toʻqimalaridan patogen zamburugʻlarni ajratib olish, molekulyar-genetik identifikatsiya qilish va genetik xilma-xilligini tavsiflash;

noʻxat oʻsimligining *Fusarium* turkumi zamburugʻlariga chidamlilik xususiyatlarini morfologik baholash;

SSR DNK markerlar yordamida noʻxat genotiplarining kasallikka chidamlilik va hosildorlik belgilari boʻyicha polimorfizmini aniqlash;

noʻxat namunalarida SSR DNK markerlari bilan kasallikka chidamlilik va hosildorlik belgilarining assotsiativ xaritasini ishlab chiqish va samarali markerlarni aniqlash;

noʻxat genotiplarining fuzariozga chidamliligi hamda hosildorlik belgilari bilan assotsiativ xaritasiga asoslanib, fenotipik va genotipik jihatdan ijobiy koʻrsatkichli donorlarni seleksiya ishlarida foydalanish uchun tavsiya qilishdan iboratdir.

**Tadqiqotning obʻekti** sifatida ICARDA xalqaro tashkilotining genetik kolleksiyasidan CIFWN (Chickpea International Fusarium Wilt Nursery 2020) va CIENMED (Chickpea International Elite Nursery for Mediterranean Environments 2021) pitomniklarining noʻxat namunalari hamda fuzarioz kasalligini keltirib chiqaruvchi fitopatogen zamburugʻ turlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti.** Noʻxat (*Cicer arietinum* L.) oʻsimligining morfoxoʻjalik belgilari, fuzarioz kasalligiga chidamlilik xususiyatlari va fitopatogen zamburugʻ turlarining genetik xilma-xilligining tahlili hamda hosildorlik va chidamlilik belgilarga genetik birikkan SSR markerlari asosidagi molekulyar-genetik tahlillari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotni bajarish jarayonida, mikologik, mikrobiologik, fitopatologik, molekulyar-biologik, molekulyar-genetik hamda bioinformatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mahalliy sharoitda ICARDA xalqaro tashkiloti noʻxat namunalarining morfoxoʻjalik belgilari baholangan va hosildorlik koʻrsatkichlari yuqori boʻlgan namunalar ajratib olingan;

respublikamizda *Fusarium* turkumining *Fusarium solani*, *Fusarium caricae*, *Fusarium falciforme*, *Fusarium brachygibbosum*, *Fusarium breve* va *Fusarium gossypinum* izolyatlari kasallangan noʻxat oʻsimliklaridan ajratib olingan va polifazali identifikatsiya qilinib zamburugʻ turlari aniqlangan;

*Fusarium* turkumi turlari izolyatlarining xilma-xilligi FUSARIOD-ID maʼlumotlar bazasida molekulyar-genetik jihatdan isbotlangan va *Fusarium* turkumi turlari shtammlarining ribosomaning *inter transcribed spacer* (ITS)

*regioni*, *elongation factor 1a* (*tefl-a*) va *beta-tubulin* (*tub2*) DNK barkodlari bo'yicha turlararo va turkumlararo molekulyar filogeniyasi ishlab chiqilgan;

dala sharoitida kasallangan no'xat namunalardan ajratib olingan patogen zamburug'lar molekulyar identifikatsiya qilinganda *Fusarium* turkumiga tegishli 6 ta patogen zamburug' mavjud bo'lib bu zamburug'larning ichida *Fusarium brachygibbosum* zamburug'i boshqalariga nisbatan kuchliroq patogenlik ta'sir ko'rsatishi aniqlangan;

fuzariozga chidamliligi belgisi bilan assotsiativ kartalashtirish natijalarida Fuzarioz vilt kasalligiga chidamlilik bilan genetik birikkan SSR DNK markerlaridan TA42-LG5, TA125(A), TA125(B)-LG1, TA37-LG2, TR2-LG6 va TAASH-LG1 marker-belgi assotsiatsiyasi (MTA) aniqlangan;

genetik jihatdan polimorf markerlar asosida hosildorlik belgilarining assotsiatsiya (CASTMS10 marker- dukkak soni, dukkak og'irligi, don og'irligi bo'yicha, TA146 marker- dukkak soni, don soni belgisi bo'yicha, TAASH marker- dukkak og'irligi va kasallikka chidamlilik belgisi bo'yicha, TS35 marker-don soni belgisi bo'yicha assotsiativlikni namoyon qilgan) xaritasi tuzilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

ICARDA kolleksiyasi ichidan no'xat genotiplarining *Fusarium brachygibbosum* patogen zamburug'iga chidamlilik xususiyatini baholash hamda chidamlilik va hosildorlik belgilari bilan genetik birikkan SSR DNK markerlari yordamida fuzarioz viltga chidamli bo'lgan namunalar (17104, 17161, 17270, M29, M36) ajratib olingan;

dala sharoitida kasallangan no'xat o'simliklaridan umumiy 8 ta patogen zamburug' ajratib olingan. Umumiy *ITS*, *tefl-a* va *tub2* fragmentlariga asoslangan tur sekvens natijalari bo'yicha bu patogen zamburug'lar FUSARIOD-ID ma'lumotlar bazasida umumiy ajratib olingan 8 ta zamburug' turlari, *Fusarium* turkumiga kiruvchi 6 ta zamburug' turi - *Fusarium solani*, *Fusarium caricae*, *Fusarium brachygibbosum*, *Fusarium falciforme*, *Fusarium breve*, *Fusarium gossypinum* ekanligi aniqlangan;

ajratib olingan patogenlarning *ITS regioni*, *tefl-a*, *beta-tubulin* DNK barkodlari sekvens natijalari quyidagi raqamlar PQ203000, PQ203001, PQ203002, PQ203003, PQ203004, PQ203005, PQ203006, PQ203007, PQ203008, PQ203009, PQ203010, PQ203011, PQ203012, PQ203013, PQ203014, PQ062216, PQ062218, PQ062220, PQ062221, PQ062219, PQ062223, PQ062217, va PQ062222 orqali NCBI bazasidan ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** biologiyaning zamonaviy (bir-birini to'ldiruvchi molekulyar genetik, bioinformatik) usullaridan, patogenlar Sanger usuliga asoslangan sekvenslash orqali molekulyar identifikatsiya qilinganligi, TASSEL, STRUCTURE, MEGA, kabi bioinformatik dasturlar orqali statistik usullardan, shuningdek, nazariy va amaliy ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlardan foydalanilganligi, ko'p yillik tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'ri qo'yilganligi, olingan natijalarning dunyo hamda mamlakatimiz olimlari tadqiqot natijalari bilan qiyosiy tahlil qilinganligi, tadqiqotlar natijalarining yetakchi ilmiy jurnallarda hamda mahalliy va xalqaro ilmiy-amaliy



konferensiyalarda e'lon qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati no'xat (*Cicer arietinum L.*) kolleksiya namunalarining fuzarioz kasalligiga chidamliligi va hosildorlik belgilari bilan bog'langan SSR DNK markerlar aniqlanganligi, kasallik keltirib chiqaruvchi *Fusarium* turkumi fitopatogen zamburug'lari haqida ma'lumotlar boyitilganligi, bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston sharoitida dukkaklilarda (no'xat) *Fusarium solani*, *Fusarium caricae*, *Fusarium falciforme*, *Fusarium brachygibbosum*, *Fusarium breve* va *Fusarium gossypinum* turlari qayd etilganligi, fuzariozga chidamliligi hamda bir necha hosildorlik belgilari bilan assotsiativ xaritasiga asoslanib, fenotipik va genotipik jihatdan ijobiy ko'rsatkichli 5 ta namuna seleksiya jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilinganligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** No'xatning (*Cicer arietinum L.*) kolleksiya namunalarini SSR DNK markerlari bilan Fuzariozga chidamli bo'lgan lokuslarini assotsiativ kartalashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

no'xat o'simligida fuzarioz kasalligini qo'zg'atuvchi *Fusarium* turkumi turlari zamburug'larining: *Neocosmospora solani* (*Fusarium solani*)–IGPEB-1, *Neocosmospora caricae* (*Fusarium caricae*) – IGPEB-2, *Fusarium brachygibbosum*– IGPEB-4, *Neocosmospora falciformis* (*Fusarium falciforme*) - IGPEB-5, *Neocosmospora brevis* (*Fusarium breve*) – IGPEB-7, *Fusarium gossypinum* - IGPEB-8 shtammlarining sof kulturalari O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining "Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar" noyob ob'ekti kolleksiyasi genofondiga topshirilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 6-avgustdagi № 4/1255-1758-son ma'lumotnomasi). Natijada kolleksiya *Fusarium* turkumi turlarining genofondini boyitish, elektron bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan;

*Fusarium* turkumi zamburug'i shtammining ITS regioniga asoslangan tur sekvensi bo'yicha olingan natijalar NCBI (AQSh Milliy Biotexnologiya Axborot Markazi), EMBL-EBI Yevropa nukleotid arxivi (Buyuk Britaniya, Kembridj) va DDBJ Yaponiya DNK ma'lumotlar bazasida PQ062216, PQ062217, PQ062219, PQ062220, PQ062222 va PQ062223 ID raqamlari orqali ro'yxatdan o'tkazilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 6-avgustdagi № 4/1255-1758-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston hududida tarqalgan *Fusarium* zamburug'ining turkumi turlarining shtammlari o'ziga xosligini aniqlash hamda ushbu shtammlarning nukleotidlar ketma-ketliklari ma'lumotlarini dunyoning turli mintaqalarida uchrovchi shtammlar bilan taqqoslash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 2 tasi xalqaro, 4 tasi respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan

va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, ilmiy ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirib o'tilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“No‘xatda fuzarioz vilt kasalligiga chidamlilikning molekulyar genetik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida no‘xat o‘simligining qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat sanoatida o‘rni, uning hosildorligiga ta’sir qiluvchi omillardan biri fuzarioz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi, kasallikning yuqushi, ta’sir doirasi shuningdek patogenlarning irqi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Fuzarioz vilt (FW) kasalligining kelib chiqishi bilan birga, dukkakli o‘simliklarga zarari haqida, shuningdek Fuzarioz vilt (FW) kasalligiga chidamlilikni DNK markerlari yordamida assotsiativ xaritalash hamda genom texnologiyalari usullarining qo'llanilishi orqali dunyo olimlarining tajribalari, ilmiy ishlari sharhi orqali keltirilgan. Dunyo olimlarining chop etilgan ko'plagan maqolalarining tahlili orqali mazkur ishning asosiy maqsadi va vazifalarining shakllanishida yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazilgan joy, sharoiti, manbayi va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot davomida foydalanilgan ob'ekt, material va tadqiqot usullari keng tavsiflangan. Tadqiqot usullarida asosan tadqiqotimiz uchun tanlab olingan no‘xat namunalarining dala sharoitida kasallangan o‘simliklardan patogenlarni ajratib olish, o‘simlikni qayta zararlantirish va kasallanishini baholash usullari, ajratilgan patogenlardan hamda no‘xat namunalaridan DNK namunalarini ajratish usullari, PZR va Gel-elektroforez usullari, shuningdek ajratib olingan patogenlarni molekulyar identifikatsiya qilish, SSR DNK markerlarning genetik tahlil usullari, belgi va marker assotsiatsiyasini (MTA) o‘tkazish usullari, natijalarni bioinformatik dasturi orqali tahlil qilish va patogenlarning sekvens natijalarini NCBI hamda FUSARIOD-ID ma'lumotlar bazasi bilan taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning **“ICARDA Xalqaro tashkiloti no‘xat kolleksiyalarining morfoxo‘jalik belgilar”** nomli uchinchi bobda tadqiqot uchun tanlab olingan no‘xat namunalarining ikki yil davomida umumiy 26 ta belgilari o'rganilgan. Tadqiqotimiz uchun tanlab olingan ICARDA Xalqaro tashkilotining CIFWN (Chickpea International Fusarium Wilt Nursery 2020) va CIENMED (Chickpea

International Elite Nursery for Mediterranean Environments 2021) ko'chatzoridan umumiy bitta mahalliy nav o'z ichiga olgan 96 ta no'xat namunalarining dala sharoitida ikki yil davomida morfoxo'jalik belgilari hosildorlik ko'rsatkichlari hamda tabiiy dala sharoitida fuzarioz bilan kasallanishi belgilari o'rganildi. Kuzatilgan no'xat namunalarining morfologik belgilari bo'yicha barcha namunalarida gulining rangi oq, doni sariq rangli, shakli burishgan, poyasida, barg qo'ltig'ida antotsian rang hosil qilish holatlari uchramadi. Dala sharoitida no'xatning agrotexnologik jarayonlarni hisobga olganda unuvchanlik foizi 68 dan 100 foizgacha o'rtacha esa 87 foiz unib chiqdi, umumiy o'simliklar ichida poyasi tik o'suvchi vakillari 46 ta, 50 tasi esa yoyilib o'suvchi ekanligi aniqlandi. No'xat bargining tuzilishi ya'ni yirik, o'rtacha, mayda bargli guruhlariga hamda barg rangi jihatidan esa to'q yashil va och yashil kabi guruhlariga bo'lindi. Morfologik belgilari bilan birgalikda uning yana bir ahamiyatli belgisi ildiz tugunaklar soni aniqlandi. Ildiz tugunaklar soni o'simlikning gullash vaqtida o'rganilib bitta o'simlikda dukkaklar soni 7 tadan 35 tagacha ni tashkil qildi. Keyingi navbatta esa no'xatning SPAD ko'rsatkichi aniqlandi. SPAD ko'rsatkichi namunalarda 50 dan 79 gacha bo'lgan miqdorni namoyon qildi. Kasallangan o'simliklarning asosiy belgilarining namoyon bo'lishida birinchi no'xat barglarida sarg'ayish holatlari kuzatildi, keyinchalik o'simlik o'sishdan to'xtagani sezildi, barglar tarangligini yo'qotdi, ya'ni so'lish alomatlari yuzaga keldi va oxirgi bosqichida esa o'simlik quridi. Agar patogen zamburug' no'xatning dukkaklash vaqtida zararlasa sog'lom no'xatga qaraganda dukkaklarning puch bo'lib qolish holatlari kuzatiladi. Dala sharoitida kasallangan no'xatlar laboratoriyaga yig'ib olib kelinib uning kasallanish sababi yaxshiroq o'rganish maqsadida ulardan patogen zamburug'lar ajratildi bu haqida ko'proq ma'lumotlar IV- bobda batafsil yoritilgan.

Dala sharoitida kasallangan o'simliklarni poyasini o'rta qismi vertikal holatda kesib qaralganda uning markazida qo'ng'ir rang tusda patogen zamburug'ning mitseliy va sporalari tiqilib o'simlikning o'tkazuvchi sistemasini bloklab qo'yanini oddiy ko'z bilan ham ko'rishimiz mumkin. Dala sharoitida kasallanish darajasi kuzatilish natijasida 2022 yil natijalari bo'yicha 9 ta CIFWN namunalarida (17120, 17128, 17135, 17172, 17213, 17235, 17267, 17242) yuqori kasallanish darajalari kuzatildi. 2023 yil bo'yicha 2022 yilga nisbatan kam kasallanish holatlari kuzatilgan bo'lsa ham o'rtacha kasallanish darajasining 1,7 balligi 12 ta (M9, M20, M29, M34, 17112, 17124, 17141, 17145, 17148, 17150, 17166, 17206) namuna vakillarida aniqlandi. No'xatning dala sharoitidagi umumiy barcha morfo-xo'jalik belgilariga asoslanib shuningdek eng asosiy muhim hosildorlik belgilari bo'yicha yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgan dukkak va doni soni, hamda dukkak va don og'irligi belgilari bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan 96 ta namunalar ichidan 23 ta namunalar ajratib olindi. Ajratib olingan namunalarining har birining hosildorlik belgilari statistik tahlillari aniqlandi.

Laboratoriya sharoitida fuzarioz kasallikka chidamliligini tekshirilish natijalari orqali yuqori chidamlilikni ifoda qilgan shuningdek hosildorlik ko'rsatkichli belgilaridan dukkak soni dukkak og'irligi, don soni va don og'irligi kabi belgilari bo'yicha umumiy statistik tahlillarining o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori

ko'rsatkichlarni namoyon qilgan namunalar ajratib olindi, 23 ta namuna ichida dukkak soni belgisi bo'yicha minimum 17114 namunasida  $51,2 \pm 2,5$  ni, maximum holatda esa 17104 namunasi uchun  $85,1 \pm 4,2$  ni namoyon qildi. Dukkak og'irligi bo'yicha eng kami 17135 namunasida  $20,7 \pm 1,3$  ni, va ko'p qiymatda esa 17106 namunasida  $39,1 \pm 1,8$  ni, don soni belgisi bo'yicha esa kam sondagi qiymat bo'yicha 17114 namunasida  $53,6 \pm 2,4$  ni, va maximum holatda esa  $92,4 \pm 7,3$  ni, don og'irligi belgisi bo'yicha esa kam va ko'p qiymatlarida kesimida M18 namunasida  $16,8 \pm 0,9$  ni va 17104 namunasida esa  $23,6 \pm 1,4$  kabi ko'rsatkichlarni namoyon qildi. Tadqiqotimiz davomida no'xat o'simligining hosildorlik ko'rsatkichlarini ifoda qiladigan yana bir muhim belgilardan biri bu ming don vazni belgisi hisoblanadi. Tadqiqotimizda foydalanilgan 96 ta no'xat namunalarining fuzariozga chidamliligi yuqori bo'lgan shuningdek yirik donli, ming don vazni belgisi bo'yicha ham yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan 10 ta namuna tanlab olindi (1-jadvalga qarang).

### 1-Jadval

#### Fuzariozga chidamli va ming don vazni belgisi bo'yicha yuqori bo'lgan no'xat namunalarining statistik tahlili

| CIFWN<br>CIENM<br>ED | Dukkak soni (1 ta<br>o'simlikdagi) |      | Dukkak og'irligi (1<br>ta o'simlikdagi) |      | Don soni (1 ta<br>o'simlikdagi) gr |      | Don og'irligi (1 ta<br>o'simlikdagi) gr |      | Ming<br>don<br>vazni<br>(gr) |
|----------------------|------------------------------------|------|-----------------------------------------|------|------------------------------------|------|-----------------------------------------|------|------------------------------|
|                      | X $\pm$ Sx                         | V %  | X $\pm$ Sx                              | V %  | X $\pm$ Sx                         | V %  | X $\pm$ Sx                              | V %  |                              |
| 17139                | 45,7 $\pm$ 2,6                     | 25,9 | 30,3 $\pm$ 1,7                          | 25,7 | 56,0 $\pm$ 2,9                     | 23,4 | 23,6 $\pm$ 1,2                          | 23,5 | 391,0                        |
| 17165                | 37,3 $\pm$ 1,8                     | 22,0 | 23,5 $\pm$ 1,2                          | 22,8 | 50,7 $\pm$ 2,6                     | 23,5 | 17,8 $\pm$ 0,9                          | 23,6 | 342,2                        |
| M1                   | 38,2 $\pm$ 2,2                     | 22,5 | 21,4 $\pm$ 1,5                          | 27,4 | 40,0 $\pm$ 2,6                     | 25,7 | 15,5 $\pm$ 1,1                          | 27,4 | 400,0                        |
| M7                   | 30,3 $\pm$ 2,1                     | 26,0 | 21,7 $\pm$ 1,4                          | 26,7 | 36,8 $\pm$ 2,0                     | 21,8 | 17,2 $\pm$ 1,0                          | 23,2 | 414,0                        |
| M9                   | 42,6 $\pm$ 2,1                     | 21,7 | 24,2 $\pm$ 1,3                          | 23,5 | 44,2 $\pm$ 1,9                     | 18,3 | 17,1 $\pm$ 1,0                          | 25,7 | 377,0                        |
| M19                  | 52,0 $\pm$ 2,4                     | 21,0 | 25,4 $\pm$ 1,3                          | 23,5 | 52,5 $\pm$ 2,3                     | 19,9 | 19,0 $\pm$ 1,0                          | 24,5 | 359,0                        |
| M20                  | 49,8 $\pm$ 1,8                     | 16,1 | 26,8 $\pm$ 1,1                          | 18,6 | 53,8 $\pm$ 1,8                     | 15,3 | 20,0 $\pm$ 0,8                          | 18,6 | 357,5                        |
| M26                  | 35,5 $\pm$ 2,0                     | 22,3 | 21,5 $\pm$ 1,1                          | 20,2 | 40,7 $\pm$ 1,8                     | 17,8 | 15,1 $\pm$ 0,9                          | 23,1 | 355,0                        |
| M29                  | 41,0 $\pm$ 2,1                     | 19,6 | 27,4 $\pm$ 1,6                          | 22,5 | 50,3 $\pm$ 2,9                     | 21,5 | 19,8 $\pm$ 1,3                          | 25,0 | 381,0                        |
| M36                  | 59,2 $\pm$ 3,2                     | 24,5 | 32,1 $\pm$ 1,9                          | 27,5 | 58,4 $\pm$ 2,7                     | 21,3 | 23,2 $\pm$ 1,3                          | 25,6 | 386,0                        |

Tanlab olingan bu namunalarning dukkak soni, don soni, kabi hosildorlik belgilari ko'rsatkichlari nisbatan past, lekin doni yirik va ming don vazni bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qilgan, shu bilan birga poyasi ham tik o'suvchi hisoblanadi. M36 namunasi hosildorlik ko'rsatkichlarini ifodalaydigan barcha belgilari bo'yicha ya'ni no'xatning dukkak soni, dukkak og'irligi, don soni, don og'irligi va ming don vazni kabi belgilarining barchasida yuqori ko'rsatkichga ega. Har ikkala yil bo'yicha tadqiqotimizda foydalanilgan no'xat namunalarining 1m<sup>2</sup> maydondagi hosil miqdori ham aniqlandi. Ikki yillik natijalar shuni ko'rsatdiki hosildorlik 1m<sup>2</sup> maydonda 17166 namunada 159 grdan M82 namunada 515 gr gacha miqdorni tashkil qildi.

Dissertatsiyaning **“No'xatning (*Cicer arietinum* L.) kolleksiya namunalarining fuzarioz kasalligiga chidamliligini aniqlash”** nomli to'rtinchi bobida kasallangan no'xat namunalaridan laboratoriyada patogen zamburug'larni ajratib olish, molekulyar identifikatsiya qilib patogen shtammlarini aniqlash,

patogenlar ichidan kuchli patogen zamburug'ni aniqlab butun no'xat namunalarining unga chidamliligi baholanildi. Dala sharoitida kasallangan no'xat o'simliklaridan umumiy 8 ta patogen zamburug' ajratib olindi. Umumiy *ITS*, *tefl-a* va *tub2* fragmentlariga asoslangan tur sekvenslari ya'ni uchala sekvens natijalari bo'yicha bu patogen zamburug'lar FUSARIOD-ID ma'lumotlar bazasida umumiy ajratib olingan 8 ta zamburug' turlari, *Fusarium* turkumiga kiruvchi 6 ta zamburug' turi - *Fusarium solani*, *Fusarium caricae*, *Fusarium brachygibbosum*, *Fusarium falciforme*, *Fusarium breve*, *Fusarium gossypinum*, ekanligi aniqlandi. (2-jadvalga qarang)


## 2-Jadval

### Uchta DNK barkodlari yordamida zamburug' izolyatlarining polifazali identifikatsiyasi natijasi

| № | Zamburug'                      | Izolyat    | O'xshashlik% |
|---|--------------------------------|------------|--------------|
| 1 | <i>Fusarium solani</i>         | NRRL 46643 | 99.71        |
| 2 | <i>Fusarium caricae</i>        | CBS 309.75 | 99.58        |
| 3 | <i>Fusarium falciforme</i>     | NRRL 32798 | 99.8         |
| 4 | <i>Fusarium brachygibbosum</i> | NRRL 34033 | 99.4         |
| 5 | <i>Fusarium falciforme</i>     | NRRL 32798 | 99.8         |
| 6 | <i>Fusarium falciforme</i>     | NRRL 32339 | 99.9         |
| 7 | <i>Fusarium breve</i>          | F93        | 99.69        |
| 8 | <i>Fusarium gossypinum</i>     | CBS 116613 | 100          |


Aniqlangan patogen zamburug'lar *ITS*, *tefl-a* va *beta-tubulin* shtrix-kodlari (barkodlar) asosida olingan natijalari quyidagi raqamlar PQ203000, PQ203001, PQ203002, PQ203003, PQ203004, PQ203005, PQ203006, PQ203007, PQ203008, PQ203009, PQ203010, PQ203011, PQ203012, PQ203013, PQ203014, PQ062216, PQ062218, PQ062220, PQ062221, PQ062219, PQ062223, PQ062217, va PQ062222 orqali NCBI (AQSh Milliy Biotexnologiya Axborot Markazi), EMBL-EBI Yevropa nukleotid arxivi (Buyuk Britaniya, Kembridj) va DDBJ Yaponiya DNK ma'lumotlar bazasidan ro'yxatdan o'tkazilgan. Ajratib olingan patogen zamburug'larning barchasini no'xat namunalariga inokulyatsiya qilib zararlantirib patogenlarning ichida eng tez va yuqori patogenlik xususiyatini namoyon qilgan *Fusarium brachygibbosum* zamburug'i bizni tadqiqotimiz davomida butun kolleksiya no'xat namunalarini zararlantirishda foydalanildi.

Avval no'xatning unuvchanligiga patogenning ta'siri o'rganilib unda nazorat va infeksiyon fondagi no'xat namunalarining ildiz uzunligi, poya uzunligi, unuvchanlik % va unish kuchi indeksi hisoblab chiqildi (1- rasmga qarang). Natijalar shuni ko'rsatdiki nazorat namunalarida unuvchanlik foizi o'rtacha 94,4%-100 %, ildiz uzunligi o'rtacha 5,25-4,8 sm, poya uzunligi o'rtacha 2,67-1,6 sm, unish kuchi indeksi esa o'rtacha 756,5-637,6 ni, infeksiyon fon da esa unuvchanlik foizi o'rtacha 70,67% -73,3% , ildiz uzunligi o'rtacha 3,79-3,1 sm, poya uzunligi esa o'rtacha 1,45-1,2 sm, unish kuchi indeksi o'rtacha 405,7-344,8 ni tashkil qildi. Urug'ning sifatini uning fiziologik ko'rsatkichlari ya'ni namligi, turli xil stressli faktorlarga chidamliligini unish kuchi belgilaydi. Umumiy unuvchanlik patogen zamburug' ta'sirida 25-30 foizgacha, ildiz va poya uzunligi 40-50%, unish kuchi



**1-rasm. No‘xat kolleksiya namunalari unuvchanligiga patogen (*Fusarium brachygibbosum*) zamburug‘ining ta’siri.**

indeksi ham 50 % ga kamayishiga olib keldi. Keyingi bosqich bu patogenning (*Fusarium brachygibbosum*) no‘xat namunalarining nihol bosqichidagi kasallangan no‘xat o‘simliklarning kasallanish darajasini baholash hamda chidamli namunalarni aniqlashdan iborat (2-rasmga qarang).




**2-rasm. No‘xat genotiplarining fuzariozga chidamliligining statistik tahlili, R-chidamli, MR-o‘rtacha chidamli, MS- o‘rtacha sezgir, S-sezgir.**

Natijalar shuni ko‘rsatdiki umumiy 96 ta no‘xat namunalarining 68-chidamli, 15-o‘rtacha chidamli, 8-o‘rtacha chidamsiz, 5-chidamsiz ekanligi aniqlandi. Umumiy xulosa qilib aytganda dala sharoitida kasallangan no‘xat namunalaridan ajratib olingan patogen zamburug‘lar molekulyar identifikatsiya qilib aniqlanildi va bu *Fusarium* turkumiga tegishli 6 ta patogen zamburug‘ ekanligi aniqlandi. Bu zamburug‘larning ichida *Fusarium brachygibbosum* zamburug‘i boshqalariga nisbatan kuchliroq patogenlik ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. No‘xatning unuvchanligiga patogenni ta’siri sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib unuvchanlik foizi va unish kuchi indeksining 30-40 % gacha pasayishiga olib kelishi aniqlandi. Umumiy 96 ta no‘xat namunalarining fuzariozga chidamliligi nihol bosqichida o‘rganilishi natijasida 70,8% chidamli 15,6% o‘rtacha chidamli 8,3% o‘rtacha sezgir va 5,2% sezgir deb topildi.


Dissertatsiyaning “SSR DNK markerlari bilan no‘xat o‘simligining fuzariozga chidamliligi va hosildorlik belgilari o‘rtasida assotsiativ kartalashtirish” deb nomlangan beshinchi bobida mazkur ilmiy tadqiqot ishimizda mikrosatellit markerlar asosida tadqiqot uchun tanlab olingan no‘xat kolleksiyalari

namunalarida molekulyar skrinining o'tkazilib, natijalar tahlil qilindi. Polimorf molekulyar markerlar kasalliklarga chidamlilik genlarini xaritalash, shuningdek molekulyar seleksiyani tushunish uchun zaruriy uslublardan biridir. Shuningdek umumiy 180 ta markerning 69 tasi polimorflik, 60 tasi monomorf natijasini ko'rsatdi. Qolgan markerlar bizni no'xat genotiplarimizga mos tushmadi (3- rasmga qarang).



**3-rasm. No'xat genotiplarida polimorf SSR markerlarining (TA176) skrinining natijalari**


Polimorf ko'rsatkichiga ega bo'lgan SSR DNK markerlarini genotiplash ishlari natijasida ularning genotipik tahlillari, genetik xilma-xillik parametrlari, jumladan, allellar soni (Na), genlar xilma-xilligi (He) va polimorfizm ma'lumotlari (PIC) <https://irscope.shinyapps.io/iMEC/> yordamida hisoblab chiqildi. Bunda 69 ta polimorf SSR markerlari bilan 96 no'xat genotipini baholashda umumiy 191 allel aniqlandi, har bir marker uchun o'rtacha 2,8 allelni tashkil qildi. Markerlardagi allellar soni ikkidan maximum beshgacha, PIC qiymatlari esa 0,1 dan 0,37 gacha o'zgacha bo'lgan qiymatlarni ko'rsatdi. Bundan tashqari, genetik xilma-xilligi 0,1 dan 0,5 gacha, o'rtacha qiymati esa 0,4 ni tashkil etdi. No'xatning genotipik tahlillari bo'yicha STRUCTURE tahlili va klasterlash tahlillari ham amalga oshirildi. Bunda barcha no'xat genotiplarini baholashda foydalanilgan polimorf markerlarning genotip ma'lumotlari orqali Bayes yondashuvidan foydalanib STRUCTURE bioinformatik dasturi bilan 96 ta no'xat genotipining populyatsiya tuzilishi o'rganib chiqildi. Populyatsiya tuzilishini o'rganish maksimal delta K (*ad hoc* miqdori) asosida klasterlar sonini (K) aniqlash uchun oldindan belgilangan 1 dan 10 gacha bo'lgan klasterlar soni (K) yordamida amalga oshirildi.



**4-rasm. No'xat genotiplarining populyatsiya tuzilishining tahlili, (A) DK qiymatlari asosidagi faraziy subpopulyatsiyalarni baholash, (B) Barplot ko'rinishida Q-qiymatlari asosida populyatsiya tarkibi tahlili.**



STRUCTURE HARVESTER (<https://github.com/dentearl/structureHarvester>) saytida STRUCTURE natijasi ma'lumotlari orqali eng yuqori delta K (*ad hoc* miqdori)  $K = 2$  qiymatiga erishildi, bu butun kolleksiyada ikkita kichik populyatsiya mavjudligini ko'rsatadi (4-rasmga qarang). Shuningdek TASSEL v. 5.0 dasturida umumiy 96 ta no'xatning genotip ma'lumotlari orqali klaster tahlillari ham o'tkazildi bunda Q-qiymatlari asosida  $\geq 80\%$  umumiy ajdodga ega genotiplar ikkita asosiy klasterga bo'lingan: QI klasteri (11 genotip), QII klasteri (68 genotip). Qolgan 17 genotip (17,7%) umumiy kelib chiqishi  $<80\%$  bo'lgan aralash tuzilmalardan iborat edi (5-rasmga qarang). Neighbour-joining klasterlashuvi Bayesga asoslangan populyatsiya tuzilishi tarkibi orqali amalga oshirildi. 96 no'xat genotipidagi hisoblangan juft genetik masofalar 0,087912 dan 0,478022 gacha bo'ldi. 96 ta genotipning butun to'plami klasterga qo'shilishning vaznsiz qo'shilishi asosida ikkiga guruhga ajralgan. 1-klasterda 62 ta genotip, 2-klasterda esa 34 ta genotip mavjud (5-rasmga qarang). Delta K asosidagi klasterlar QI (qizil) va QII (yashil) populyatsiya tuzilishi tarkibiga ko'ra tayinlangan NJ daraxt klasterlariga mos keldi.



**5-rasm. Klasterlash va populyatsiya tuzilishi tahlillari. 96 no'xat genotipining qo'shni birlashtiruvchi (NJ) daraxti.**

Structure tahlillari natijasidan keyingi bosqichda 96 no'xat genotipi va fenotipik belgilari o'rtasida SSR markerlar yordamida assotsiativ xaritalashda



foydalanildi. STRUCTURE dasturi natijalari orqali bizni ob'ekt sifatida olingan no'xat kolleksiya namunalarimizning genom tarkibi asosiy ikki xil genom aralashmasidan iborat ekanligini aniqlab berdi. Ikkita kichik guruhdan iborat bo'lgan populyatsiyaning ko'proq qismini "yashil" rangdagi populyatsiya tashkil qiladi. STRUCTURE dasturi natijalari orqali bizni ob'ekt sifatida olingan no'xat kolleksiya namunalarimizning genom tarkibi asosiy ikki xil genom aralashmasidan iborat ekanligini aniqlab berdi. Bu ma'lumotlar orqali 96 ta no'xat genotipining MTA (marker-trait association) tahlili uchun Q-matrix ma'lumotlari olindi va bu keyingi molekulyar xaritalash tahlillarini amalga oshirish uchun foydalanildi. Ushbu tadqiqotning maqsadi no'xatdagi Fuzarioz vilti (FW) belgisi bilan bog'liq bo'lgan SSR (Simple Sequence Repeat) markerlarini aniqlash edi. Fuzarioz vilti (FW) bilan kasallanish ma'lumotlari va Simple Sequence Repeat (SSR) ma'lumotlar to'plami uchun muhim assotsiatsiya xaritasini aniqlash uchun umumiy chiziqli model (GLM) va aralash chiziqli model (MLM) yondashuvlaridan foydalandik. GLM tahlili FW-chidamlilik belgilari uchun  $P < 0,05$  kichik bo'lib bunda katta ahamiyatga ega bo'lgan assotsiativ guruhlar tanlandi, (3-jadvalga qarang). GLM va MLM tahlillari asosida FW-chidamliligi belgisiga MTA (marker-trait association) ni tasvirlangan Manhattan plot syujetlarida chegara P-qiymati 1,8 ga belgilangan.

### 3-Jadval

